

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti rektori



_____ R.M.Matkarimov

2024-yil «11» iyul

“KELISHILDI”

O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi raisi



_____ A.T.Yusupov

2024-yil «28» 08

13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi
ixtisosligi bo'yicha “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat” fanidan
qo'shimcha malakaviy imtihon

D A S T U R I

Mazkur dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF – 4958-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-sonli qarori asosida tayyorlangan.

Tuzuvchilar:

- M.Olimov** – O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)
- J.Ishtayev** – O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, Pedagogika va psixologiya kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari doktori (DSc)

Taqrizchilar:

- A.Xalikov** – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti professori, pedagogika fanlari doktori, professor
- M.Shodiyeva** – Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi, Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrasida mudiri, pedagogika fanlari doktori, dotsent

Dastur O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Kengashida muhokama qilingan va ma’qullangan (2024-yil “___” _____ №___ bayonnoma)

KIRISH

Mazkur dastur 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat” fanidan qo‘shimcha malakaviy imtihon dasturida pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat fanining nazariy va metodologik asoslariga, mazmuni, funksiyasi, tarkibiy qismlariga, ularning vazifalariga e‘tibor berilgan. Talabgorning yangi pedagogik texnologiyalar va pedagog mahorati bo‘yicha zarur bo‘lgan pedagogik bilim va ko‘nikmalarni, ilg‘or xorijiy tajriba va o‘qitish metodikasini bilish darajasiga e‘tibor qaratilgan.

“Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat” fani o‘qituvchi mahorati va pedagogik texnologiyaning ilmiy aspektini belgilashda muhim bo‘lib, bu texnik va inson resurslarini hamda ularni o‘z oldiga ta‘lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo‘yuvchi hamkorligini hisobga olgan holda dars berish va bilimlarni o‘zlashtirishning barcha jarayonlarini yaratish, qo‘llash va belgilashning tizimli uslubi.

Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari – majmuaviy integral tizim bo‘lib, unda ta‘lim maqsadlari asosida belgilangan ko‘nikma va malakalar talaba (o‘quvchi)lar tomonidan nazariy bilimlarni o‘zlashtirish hamda amaliy jihatdan ma‘lum tartib sifatida aks etadi. Ya‘ni ta‘lim maqsadlarining belgilanishi (kimga va nima uchun?), mazmunni tanlash va ishlab chiqish (nima?), ta‘lim jarayonlarini tashkil qilish (qanday?), ta‘lim metod va vositalarining belgilanishi (nimalar yordamida?), o‘qituvchilarning malaka darajasi (kim?), erishilgan natijalarni baholash metodi (qanday yo‘l bilan?) kabilarning yoritilishida mazkur dastur asos bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonuni (23.09.2020), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi «O‘zbekiston – 2030» strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-300-son qarori, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy talim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son hamda 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta‘lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son qarorlari ushbu dasturni shakllantirishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Dasturning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat: talabgorlarni hozirgi zamon pedagogika fanining nazariy asoslari bilan qurollantirish; O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi (23.09.2020) qonunini amaliyotga tatbiq etish jarayonida ta‘lim samaradorligini oshirish uchun ularda zarur ko‘nikmalarni hosil qilish; pedagogik amaliyot, pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat asoslari mohiyatini yorituvchi nazariy bilimlarni hosil qilish; ta‘limiy-tarbiyaviy qarashlarni pedagogik faoliyatga tatbiq etish ko‘nikmalarini shakllantirish, ilmiy, texnik va texnologik yutuqlarni qo‘llay olishga tayyorlash hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat.

Talabgor “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat” fanini o‘rganish davomida zamonaviy ta’lim texnologiyasi, kompyuter va axborot texnologiyasi, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, pedagogik mazmundagi amaliy, ilmiy tadqiqot topshiriqlarini bajara olishini namoyon eta olishlari zarur.

Malakaviy imtihon dasturi 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligida pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga talabgorlar uchun mo‘ljallangan.

ASOSIY QISM

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA

Pedagogik texnologiyaning ilmiy-nazariy asoslari. “Pedagogik texnologiya”, “metodika”, “metod” tushunchalari. Pedagogik texnologiyaning mezonlari. Pedagogik texnologiyaga ilmiy-nazariy yondashuvlar. Pedagogik texnologiyaning rivojlanish bosqichlari. Pedagogik texnologiyalarning tuzilishi, maqsadi, vazifalari, metodologik asoslari. Ta’lim texnologiyasining darajalari. Umumiy texnologiya. Xususiy texnologiya. Modul texnologiyasi. Ta’lim texnologiyasining turkumlanishi. Ta’lim texnologiyalariga aksiomatik yondashuv.

Pedagogik texnologiya fan sifatida. Pedagogik texnologiyaning asosiy kategoriyalari. Pedagogik texnologiyaning metodologik asoslari. “Texnologiya” tushunchasi. “Pedagogik texnologiya” tushunchasining paydo bo‘lishi.

Pedagogik texnologiyaning tarixiy rivojlanish davrlari. XX-asrda pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi. Pedagogik texnologiyalar rivojining zamonaviy bosqichi. O‘quvchi shaxsi ta’lim jarayonining obekti va subekti sifatida. Shaxs qiyofasining tuzilishi va uning to‘rt darajasi: temperament, psixik jarayonlarning o‘ziga xosligi, tajriba va shaxs yo‘nalganligi. Bilim, ko‘nikma va malakalar (BKM). Aqliy harakat usullari (AHU).

Pedagogning innovatsion faoliyati va uning tuzilishi. Pedagogik texnologiya tushunchasi va uning o‘ziga xos jihatlari: ilmiy, proressual-tavsifiy (tavsiflash, o‘quv jarayonini algoritmlash), proressual-harakatli (o‘quv jarayonini amalga oshirilishi). Pedagogik texnologiyaning darajalari: texnologik, umumiy pedagogik (umumiy didaktik), xususiy metodik (fanga oid), lokal (modulli).

Pedagogik texnologiyalarning tuzilishi: konseptual asos, mazmunli qism, proressual qism – texnologik jarayon. Pedagogik texnologiyalarga qo‘yiladigan talablar: tizimlilik, boshqaruvli, samaradorlik, ishlab chiqarish.

Pedagogik texnologiyaning nazariy asoslari: moddiy va ideal, dialektik va ideal, ilmiy va diniy, insonparvar va insonparvarlikka qarshi, pragmatik va ekzistensial, erkin tarbiya nazariyasi va boshqalar. Pedagogik jarayon tizim sifatida.

Pedagogik texnologiya tizimli yondashuv sifatida. Ta’lim texnologiyalarining tarkibiy qismi. Pedagogik texnologiyaning asosiy belgilari. Pedagogik texnologiyalar tasnifi: qo‘llanilish darajasiga ko‘ra; falsafiy asoslariga ko‘ra; asosiy omillari bo‘yicha; ilmiy konsepsiyalar bo‘yicha; bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish turiga ko‘ra va b. An’anaviy sinf-dars texnologiyasining farqli belgilari. An’anaviy ta’limning tasnifiy tavsifi. An’anaviy ta’lim tamoyillari. An’anaviy ta’lim mazmuni

va metodikasining o'ziga xosliklari. Ta'limning an'anaviy shakllarining ijobiy va salbiy tomonlari.

Ta'lim innovatsiyalarining mohiyati, nazariy asoslari va turlari (innovatsion pedagogika). Innovatsion pedagogika va uning mohiyati. Ta'lim tizimida innovatsiyalarning o'rni. Innovatsiyalarning asosiy ko'rinishlari. Ta'lim innovatsiyalarining turlari. Novatsiya (yangilanish). Novatsiya va innovatsiya tushunchalarining farqli jihatlari. Pedagogikada innovatsion o'zgarishlarning yo'nalishlari. Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni tashkil etishga ilmiy yondashuvlar. Innovatsion faoliyat mazmuni. Pedagogning innovatsion faoliyati. Ta'lim innovatsiyalarini pedagogik jarayonga tatbiq etish bosqichlari.

Ta'limning interfaol metodlari va strategiyalari. Interfaol strategiyalar. Interfaol metodlar. Grafik organayzerlar. Interfaol ta'lim samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillar. Ta'lim jarayonida interfaol metodlarni qo'llashning ahamiyati va zarurati. Interfaol ta'lim muhitini yaratishga qo'yiladigan talablar.

Ta'limda keys texnologiyasi. "Keys-stadi" texnologiyasi. Zamonaviy o'qitish amaliyotida o'quv keyslarining turlari. "Keys-stadi" yordamida talabalar egallaydigan bilim, ko'nikma, malakalar haqida. O'quv keyslarining muhim xarakterli jihatlari va asosiy xususiyatlari. Keyslar tipologiyasi.

Ta'lim jarayonida o'yin texnologiyalarini qo'llash. O'yin tushunchasi. O'yin shaxsning ruhiy rivojlanishini belgilovchi yetakchi faoliyat turi sifatida. O'yin texnologiyalari. Pedagogik o'yinlarning asosiy belgilari. G.K.Selevkoning pedagogik o'yinlar tipologiyasi. Didaktik o'yinlar. Syujetli o'yinlar. Rolli o'yinlar. Ishbilarmonlik o'yinlari. Imitatsion o'yinlar. Dramatik o'yinlar (psixologik va ijtimoiy).

Tanqidiy fikrlash texnologiyalari. Taksonomiya tushunchasi. B.Blumning o'quv maqsadlari taksonomiyasi. L.Vigotskiyning fikrlashni rivojlantirish nazariyasi, tanqidiy fikrlash-axborotni qayta ishlash, tartibga solish usuli sifatida. Ta'limning uch bosqichli modeli. Chaqiriq, Anglash, Fikrlash. Uch bosqichning vazifalari. Tanqidiy fikrlash asoslari. tanqidiy fikrlash ko'nikmalari, kuzatuv; tahlil; sintez; chegirma; induksiya; talqin qilish; mantiqiy hukm; muayyan uchun mavhumlik, induksiya va chegirma; turli xil variantlardan tanlash; mavhum tushunchalarni spetsifikatsiya qilish.

Ta'lim tizimida xalqaro baholash dasturlarilari va ularni amalga qo'llash: Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish (PIRLS, TIMSS, TALIS, PISA, EGRA va EGMA) PIRLS – boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash; TIMSS – 4- va 8-sinf o'quvchilarining tabiiy-ilmiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonligini baholash; TALIS – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish; PISA – 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash. EGRA va EGMA esa boshlang'ich sinflarda o'qish hamda matematika bo'yicha ko'nikmalariga baho berish. O'qish savodxonligining maqsadi, tushunish jarayoni: diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish; to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish; g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish.

PEDAGOGIK MAHORAT

Pedagogik mahorat, uning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni. Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati. O'qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat.

O'qituvchining kommunikativ qobiliyati. O'qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi. Muloqotni tashkil etishda umuminsoniy qadriyatlarning ustivorligi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot.

Pedagogik nazokat va odob-axloq. Pedagogik nizolar va ularni bartaraf etish texnologiyasi. Pedagogik texnika haqida tushuncha, pedagogik texnikani shakllantirish uslublari. Nutq texnikasi va madaniyati. O'qituvchining ta'lim jarayonidagi mahorati. O'qituvchining tarbiyachi sifatidagi mahorati. O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish. O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash. Shaxsiy pedagogik tajribani to'plash tizimi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni asosida o'qituvchi faoliyati mazmuniga qo'yiladigan talablar. O'qituvchining umumiy madaniy saviyasi va qobiliyati. O'qituvchilik faoliyatining tizimi, kasbiy mahorati haqida tushuncha.

Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari va ularning mohiyati. O'qituvchi faoliyatining asosiy yo'nalishlari. Pedagogik bilimlar. Pedagogik zakovat. Pedagogik qobiliyat. Pedagogik texnika. Qobiliyatning psixologik-pedagogik tavsifi. Pedagogik qobiliyatning asosiy turlari. Empatiya va perseptiv qobiliyatlar. Didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ, bilish va anglash qobiliyatlari.

O'qituvchi irodasi, sabr-toqati, maqsadga intilishi, o'z hatti-harakatlarining to'g'riligiga nisbatan qat'iy ishonchi, uning o'z-o'zini idora qilish hamda boshqalarga ta'sir o'tkaza olish qobiliyati, his-tuyg'ulari va kayfiyatini boshqara olishi, o'z zimmasiga javobgarlikni ola bilishi, ijodiy holatni tashkil eta olishi kabi sifatleri. Muloqot orqali ta'sir etish. Muloqotga kirishish. Aloqa o'rnatish (kommunikasiya) tushunchasi, uning mohiyati, pedagogik ta'sir etish usullari. O'qituvchi tomonidan muloqotga kirishish jarayonida qo'llaniladigan muomala uslublari. O'qituvchining kommunikativ ko'nikmasi: "Yuzni o'qish san'ati", o'zgarlar holatini tushuna olish, o'zini namoyon qila bilish, nutq vositasi hamda so'zsiz holatda inson ruhiyatini tushuna olish. O'qituvchi tomonidan o'quvchi bilan muloqotda bo'lish jarayonida qo'llaniladigan pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari: ishontirish va ma'qullash. Ishontirishning og'zaki shakllari: ogohlantiruvchi so'zlar, tezlik bilan ta'sir etish, ijro etishga undovchi buyruqlar, ta'qiqlangan iboralar, hazil orqali anglatish, ma'qullar yoki ayblash.

"Muloqot" atamasining falsafiy, ijtimoiy, psixologik va pedagogik mohiyati, muloqot birligi. Pedagogik muloqot, uning o'ziga xos xususiyatlari. Pedagogik muloqotni tashkil etish madaniyati. Pedagogik muloqotni tashkil etish bosqichlari va usullari. Pedagogik muloqot modulini ishlab chiqish. O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik muloqot jarayonini boshqarish uslublari. Muloqot jarayonida tashabbusni boshqarish. Dars hamda darsdan tashqari jarayonda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqot, unga qo'yiladigan talablar. O'quvchilar jamoasida ularning e'tiborlarini jalb etish va ijodiy kayfiyatlarini yaratishda o'qituvchi muloqotining ta'siri va uning ahamiyati, o'quvchi bilan bo'lgan muloqot jarayonida o'qituvchi tomonidan ishontirish va ta'sir etish usullaridan foydalanish. Muloqot jarayonini

boshqarish uslublari. O'qituvchi obro'si. Avtoritar uslubdagi muloqot. Liberal uslubning o'qituvchi faoliyatida namoyon bo'lish xususiyatlari. O'qituvchining demokratik uslubdagi muloqoti – o'quvchilar fikriga tayanish, ushbu fikrlarni ma'qullash shakli. Ilmiy pedagogik adabiyotlarda berilgan muloqot turlari (do'stona muloqot, qo'rquv asosiga qurilgan muloqot, hazil-mutoyibaga asoslangan muloqot va boshqalar) haqida.

Pedagogik odob va pedagogik nazokat haqidagi tushuncha. Pedagogik nazokat tamoyillari va uning vazifasi. Pedagogik nazokat meyorlari: ixtisos sohasidagi burch, pedagogik adolat, ixtisosga doir vijdon izzat-nafs va pedagogik oriyat. Pedagogik nazokat-o'qituvchi ahloqining ijodiy ko'rinishi. Pedagogik nazokatning zarurligi. Pedagogik nazokatning mohiyati va xususiyati. O'qituvchining dars jarayonidagi nazokati. Nazokat va taktika. Pedagogik nizolarning asosiy sabablari. Pedagogning persektiv (o'quvchi, talabalarni tushunish) xatolari. Pedagogning o'quvchi-talabalar bilan ish yoki shaxsiy ish yuzasidan bo'ladigan kelishmovchiliklarni va ularni bartaraf etishning o'ziga xos xususiyatlari. Yosh pedagoglar faoliyatida odatda yo'l qo'yiladigan xatolar va ularni yengish yo'llari. Pedagogik nazokat. O'zaro uchraydigan nizolarni bartaraf etish texnologiyasi.

Pedagogik texnika-o'qituvchining fe'l-atvori, yurish-turishini tashkil etuvchi usullar majmuasi. Pedagogik texnika vositasi: verbal va noverbal kommunikasiya. Pedagogik texnikaning tarkibiy qimmlari. O'qituvchining tashqi qiyofasi va unga qo'yiladigan talablar. Nutqning inson hayoti va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni. Mutafakkirlar va pedagoglarning so'z va nutqning ijtimoiy jamiyatda tutgan o'rni va roli haqidagi qarashlari. Nutqning o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro muloqot jarayonidagi asosiy bog'lovchi vosita ekanligi. Nutq organlari, nutq apparati. Til va nutq. O'qituvchining nutq mahoratini takomillashtirish yo'llari. Pedagogik mahoratni shakllantirishning asosiy tamoyillari: yaxlit holda yondashuv; faol muloqot; pedagogik harakatning xilma-xilligi; pedagogik ta'sirining ko'p qirraliligi; nazariy bilim va amaliy malakalarning o'zaro bog'liqligi. O'qituvchi faoliyatida o'z ustida ishlashning o'z-o'zini anglash va tarbiyalash faoliyati bilan o'zaro bog'liqligi. O'z ustida ishlash va o'z-o'zini tarbiyalashning psixologik-pedagogik asoslari.

Imtihon savollari

1. "Pedagogik texnologiya", "metodika", "metod" tushunchalari
2. Pedagogik texnologiyaning mezonlari
3. Pedagogik texnologiyaning rivojlanish bosqichlari
4. Pedagogik texnologiyalarning tuzilishi, maqsadi, vazifalari, metodologik asoslari
5. Pedagogik texnologiyaning asosiy kategoriyalari
6. Pedagogik texnologiyaning tarixiy rivojlanish davrlari
7. Bilim, ko'nikma va malakalar
8. Pedagogik texnologiyalarga qo'yiladigan talablar
9. Ta'lim innovatsiyalarining mohiyati, nazariy asoslari va turlari (innovatsion pedagogika)
10. Innovatsion pedagogika va uning mohiyati
11. Pedagogning innovatsion faoliyati

12. Ta'limning interfaol metodlari va strategiyalari. "Keys-stadi" texnologiyasi
13. Ta'lim jarayonida o'yin texnologiyalarini qo'llash
14. Tanqidiy fikrlash texnologiyalari
15. Ta'lim tizimida xalqaro baholash dasturlari va ularni amalda qo'llash
16. Pedagogik mahorat, uning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni
17. O'qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat
18. O'qituvchining kommunikativ qobiliyati
19. O'qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi
20. Pedagogik nazokat va odob-axloq
21. Pedagogik nizolar va ularni bartaraf etish texnologiyasi
22. Pedagogik texnika haqida tushuncha, pedagogik texnikani shakllantirish uslublari
23. Nutq texnikasi va madaniyati
24. O'qituvchining ta'lim jarayonidagi mahorati
25. O'qituvchi faoliyatining asosiy yo'nalishlari
26. Pedagogik zakovat
27. Pedagogik qobiliyat
28. Pedagogik texnika
29. Pedagogning didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ qobiliyatlari
30. Pedagogning bilish va anglash qobiliyatlari
31. O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik muloqot jarayonini boshqarish uslublari
32. Pedagogik texnika vositasi: verbal va noverbal kommunikasiya
33. O'qituvchining tashqi qiyofasi va unga qo'yiladigan talablar
34. O'qituvchining nutq mahoratini takomillashtirish yo'llari
35. Pedagogik mahoratni shakllantirishning asosiy tamoyillari
36. O'qituvchi faoliyatida o'z ustida ishlashning o'z-o'zini anglash va tarbiyalash faoliyati bilan o'zaro bog'liqligi

“Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat” fanidan qo‘shimcha malakaviy imtihon bo‘yicha talabgorlar bilimini BAHOLASH MEZONLARI

Maksimall ball – 100 ball

Saralash ball – 56 ball

56 balldan – 70 ballgacha (70 - 55%) – qoniqarli

71 balldan – 85 ballgacha (71 - 85,9%) – yaxshi

86 balldan – 100 ballgacha (86 - 100%) – a'lo

86-100 ball – talabgorning bilimi quyidagi talablarga javob berishi shart:

- ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik faoliyat haqida tushunchasi, uning o'ziga xos xususiyatlarini bilishi;
- soha (fan)ni perspektiv rivojlanish tendensiyasi bo'yicha ilmiy muammo va masalalar to'g'risida tahliliy fikr-mulohazalari;
- fikrni mantiqiy ifodalash qobiliyati;

– ilmiy-tadqiqot olib borish haqida tasavvurga egaligi va dissertatsiyaning tayyorlik darajasi;

– tadqiqot olib borish jarayonining amaliy ifodasi sifatida ilmiy maqolalar taqdim qilinganligi va ularning saviyasi.

71-85 ball – talabgorning bilimi quyidagi talablarga javob berishi shart:

– ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik faoliyat haqida tushunchasi, uning o‘ziga xos xususiyatlarini bilishi;

– dissertatsiya ishida qanday muammo hal qilinishini bilishi;

– fikrni mantiqiy ifodalash qobiliyati;

– ilmiy-tadqiqot olib borish haqida tasavvurga egaligi va dissertatsiyaning tayyorlik darajasi;

56-70 ball – talabgorning bilimi quyidagi talablarga javob berishi shart:

– fan (soha) bo‘yicha ilmiy maktablarni bilishi;

– sohaning yetakchi olimlarini bilishi;

– fikrni mantiqiy ifodalash qobiliyati;

Har bir talabgor uchun 3 ta savoldan iborat variantlar tayyorlanadi. Har bir savolga to‘g‘ri javob 100 balli tizimda 33,3 ball ko‘rsatkich miqdorida baholanadi.

O‘quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta’lim resurslari ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023. – 108-b.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni. 2020-yil 23-sentabr. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi «O‘zbekiston – 2030» strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-300-son Qarori. <https://old.lex.uz/docs/6600390>

5. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Asarlar. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.

6. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Asarlar, 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 508 b.

7. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2006.

8. Farberman B. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar.–T.: Fan, 2000

9. Hasanboeva O., Xasanboev J., Hamidov H. Pedagogika tarixi. – T.: G‘afur G‘ulom. 2005

10. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad /Odob durdonalari/. –T.: O‘zbekiston, 1990.

11. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-jome’ as-saxix. – T.: O‘zbekiston, 1991.

12. Ishmuhamedov R, Abduqodirov A, Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008. – 180 b.
13. Ishmuhamedov R, Abduqodirov A, Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2010. – 141 b.
14. Kamoldinov M., Vahobjonov B. Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: Talqin, 2010. – 128 b.
15. Mahkamova M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2012. – 184 b.
16. Mavlonova R. va boshq. Pedagogika. –T.: O'qituvchi, 2001.
17. Mavlonova R., To'rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. – T.: O'qituvchi, 2001. – 512 b.
18. Mavlonova R.A., Raxmonqulova N.H. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. – T., 2006. – 99 b.
19. Pedagogika (A.K.Minavarovning umumiy tahriri ostida). –T.: O'qituvchi, 1996.
20. Pedagogika nazariyasi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik./ M.X.To'xtaxodjaevaning umumiy taxriri ostida. "Iqtisod-moliya", 2007.-380 b.
21. Pedagogikadan atamalar lug'ati. – Toshkent: Fan, 2008. – 195 b.
22. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. –T.: Moliya, 2003.
23. Xasanboyev J., To'raqulov X., Xaydarov M., Xasanboeva O., Usmonov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2009. 672 bet.
24. Xasanboyev J.Y. va boshqalar. Pedagogika. O'quv qo'llanma. – T.: "Fan",2006
25. Xasanboyeva O., Xasanboev J., Xamidov X. Pedagogika tarixi. O'quv qo'llanma T., "O'qituvchi" 1997.
26. Xoshimov K, Nishonova S. Pedagogika tarixi. II–qism. Darslik. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. T.: 2005.
27. www.ziyonet.uz
28. www.pedagogika.uz
29. www.natlib.uz
30. www.ziyouz.com